SHARAFUDDIN ALI YAZDIY “ZAFARNOMA” ASARIDAGI TARIXIY MA’LUMOTLAR

Allayorova Charos Ilhom qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi 4- bosqich talabasi
allayorovac@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19728789

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Movarounnahr va Xuroson xalqlarining XIV-XV asrlardagi tarixi, Amir Temur va temuriylar sulolasi hukmronligi bilan bog‘liq katta siyosiy o‘zgarishlar haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Movarounnahr, Amir Temur, temuriylar, Eron, rivojlanish, Zafarnoma, Sharafuddin Ali Yazdiy, Tehron, YUNESKO.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается история народов Трансоксианы и Хорасана в XIV-XV веках, а также крупные политические перемены, связанные с правлением Амира Тимура и династии Тимуридов.*

Ключевые слова: *Трансоксиана, Амир Тимур, Тимуриды, Иран, развитие, Зафарнама, Шарафуддин Али Язди, Тегеран, ЮНЕСКО.*

Abstract: *This article discusses the history of the peoples of Transoxiana and Khorasan in the 14th-15th centuries, the great political changes associated with the rule of Amir Timur and the Timurid dynasty.*

Keywords: *Transoxiana, Amir Timur, Timurids, Iran, development, Zafarnama, Sharafuddin Ali Yazdi, Tehran, UNESCO.*

Kirish. Markaziy Osiyo, jumladan Movarounnahr va Xuroson xalqlari tarixida XIV – XV asrlar, Amir Temur va uning avlodi Temuriylar sulolasi hukmronligi bilan bog‘liq katta siyosiy o‘zgarishlar va ayni bir vaqtda iqtisodiy va madaniy, fan, ma’naviy hayot xullas, jamiyat hayotining barcha sohalariga daxldor rivojlanishlar davri hisoblanadi. Bu davr Markaziy Osiyo tarixidagi buyuk yuksalish davri bo‘lgan va tarixda Temuriylar renessansi deb atalgan.

Mazkur ma’lumot o‘sha davrda yozilgan birlamchi manbalarda bayon etilgan. Jumladan Sharafuddin Ali Yadiyning “Zafarnoma” asarida Osiyo, Yevropa va Afrika (Misr) hududlariga daxldor tarixiy kechinmalar o‘rin olgan.

Asarda Amir Temurning yurt mustaqilligi uchun olib borgan kurashlari, Movarounnahrda mustaqil davlat barpo etgani, uning xafsizligi uchun kurashlari, o‘zining tarixida buyuk saltanat yaratgani voqealari haqida ma’lumotlar bor.

Sharafuddin Ali Yazdiy Taft (Eron) qishlog‘ida dunyoga keldi. 1415 -1419 yillarda u hukmdor Ibrohim Sultonning saroyida xizmat qildi va o‘zining asosiy asari “Zafarnoma”ni yozdi. Bu asar Sohibqiron harbiy yurishlari va erishgan g‘alabalari

tarixi tavsifiga bag‘ishlangan. Sharafuddin Ali Yazdiy 1454 yili Taftda vafot etdi va o‘sha joyga dafn etildi. Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si debochasida ko‘rsatishicha, asar hijriy 828 yili/ milodiy 1424 – 1425 yili yozib tugatilgan. Shu tarix Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn va majmai bahrayn” asarida ko‘rsatilgan[1].

Sharafuddin Ali Yazdiy o‘z asari ya’ni “Zafarnoma” ning “Muqaddima” qismida turkiy elatlarning kelib chiqish tarixi, Chingizxon tarixi, XIV asrda Markaziy Osiyo va boshqa qo‘shni mamalakatlardagi siyosiy ahvoli, ichki urushlar va tarqoqolikning kuchayishi natijasida sohibqiron Amir Temur maydonga chiqqanini ta’kidlab o‘tgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari davlatchiligimiz tarixida muhim o‘rin egallagan Amir Temur tarixi haqida batafsil ma’lumot beradi.

Adabiyotlar tahlili. XVIII asrda Zafarnoma fransuz va ingliz tillarida nashr etilgan. A. Qrimskiy esa asarning Bradduti tomonidan amalga oshirilgan italyancha tarjimasi va Temurning To‘xtamishga qarshi yurishiga oid Zafarnomadan oldingi parchalarining ruscha tarjimasi mavjudligi haqida xabar beradi[2] va bu parchalar fransuz tadqiqotchisi Sharmua tomonidan 1836-yili chop etiladi. Zafarnomaning forscha matni Mavlaviy Ilohdod tomonidan 1887-1888 yillarda Kalkutta shahrida nashr etilgan. 1958-yili esa asar Muhammad Abbosiy tomonidan tayyorlanib, Tehronda chop qilingan. Muhammad Abbosiy tomonidan foydalanilgan qo‘lyozmalardan ikkitasi Yazdiyning hayotlik vaqtida ko‘chirilgan va uning shaxsiy kutubxonasida saqlanadi. Asarning fransuz tilidagi tarjimasi ilk marotaba Fransua Peti de la Krua tomonidan 1722-yilda Parijda chop qilingan[3].

Temurning Hindistonga yurishi haqidagi parchalar ham XIX asrda ingliz tiliga ikki marta tarjima qilingan. Shuningdek, Turkmaniston va Oltin O‘rda tarixiga oid yirik parchalarning ruscha tarjimasi forscha originali bilan birgalikda nashr etilgan edi[4]. “Zafarnoma” ning turk tiliga tarjimasi 1929-yili Istanbulda amalga oshirilgan. Adabiyotlarda Hofiz Muhammad ibn Ahmad al-Ajamiy tomonidan asarning turk tiliga tarjima qilinganligi haqida ham ma’lumotlar uchraydi[5].

“Zafarnoma”ning fransuzcha, inglizcha tarjimalarida, Kalkutta, Tehron nashrlarida ham “Muqaddima” qismi ko‘rsatilmagan. XVI-XIX asrlarda al-Buxoriy, al-Xivakiy tomonidan o‘zbek tiliga al-Ajomiy tomonidan turk tiliga o‘girilgan matnlar qo‘lyozma tarzida mavjud. Eng yangi aynan nusxa nashri 1972-yilda Toshkentda A. K. Arends tahriri ostida Asomiddin O‘rinboyevning mufassal kirish so‘zi bilan chiqdi[6].

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O‘zbekistonda tariximiz bilan bog‘liq bo‘lgan Sharq yozma merosini o‘rganish boshlandi. Shu bilan birgalikda 1969-yili Samarqandda YUNESKOning Temuriylar davri san’atini o‘rganishga bag‘ishlangan

xalqaro ilmiy anjumani bo‘lib o‘tdi, unda temuriylar tarixi yozma merosini tadqiq etish masalasi ham ko‘rib chiqiladi.

Hozirda xorijiy mamlakat kutubxonalari va boshqa turli qo‘lyozma asarlar fondlarida Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarining qo‘lyozma nusxalari saqlanadi, lekin “Muqaddima” qismi ularning hammasida ham uchramaydi. Bu haqda matnshunoslikka oid tafsilotlar “Zafarnoma”ning 1972-yili Toshkentda taniqli sharqshunos Asomiddin O‘rinboyev tomonidan amalga oshirilgan fotofaksimil nashrga yozilgan tadqiqotida qayd etilgan. Mazkur nashr uchun asarning O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan 4472 inventar raqamdagi qo‘lyozmasi asos qilingan holda, uni “Zafarnoma” ning Tehron nashri bilan qiyoslab, tavofutlar ko‘rsatilgan. Asarning №4472 aqam ostida saqlanayotgan qo‘lyozmasi asosida A.O‘rinboyev tomonidan fotofaksimil shaklda o‘zbek, rus va ingliz tillarda “Muqaddima” qismi nashr etilgan. Bu nashrda “Muqaddima” qismi uchun arab yozuvida “Mundarija” ham berilgan. U matn mazmuni haqida umumiy ma’lumot beradi. “Zafarnoma” ning O‘zbekistondagi 1972 yil fotofaksimil nashri chop etilganligi matnshunoslikda amalga oshirilgan katta bir tadqiqot edi. Bu tadqiqot “Zafarnoma”ning fandagi to‘la nashri hisoblanadi.

Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si qo‘lyozma shakli keng tarqalgan. Hozirgi davrda “Zafarnoma” ning Britaniya kutubxonasining o‘zida jami 30 ga yaqin qo‘lyozmasi borligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud. O‘rinboyev tomonidan nashr etilgan qo‘lyozmasi nastaliq xatida juda chiroyli qilib ko‘chirilgan,chiroyli mo‘jaz rasmlar bilan o‘ziga xos miniatura bilan bezatilgan va bu XVII asr O‘rta Osiyo rassomchilik san’atining taraqqiy etganligini ham ko‘rsatgan deb aytsak bo‘ladi.

Qo‘lyozmaning nashr etilgan faksimil matni Muqaddimaning O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan boshqa nusxalari hamda asarning asosiy qismi Zafarnomaning Tehron nashriga solishtirilib, undagi nuqson va xatolar A.O‘rinboyev tomonidan izohlarda to‘ldirilgan va tuzatilgan.

Bu nashr o‘zida “Muqaddima” ning mavjudligi bilan qimmatlidir. Sharafuddin Ali Yazdiyning bu asari O‘rta Osiyoning XIV oxiri va XV asr boshlaridagi madaniyat tarixini ham o‘zida namoyon qilgan bo‘lib, bu sohani o‘rganish ishiga ham katta yordam beradi. A. K. Arends “Zafarnoma” asariga quyidagicha fikr bildiradi: “Zafarnoma” asari Sharafuddin Ali Yazdiyning idealistik dunyoqarashi ruhida o‘rta asr feodalizm jamiyati tarixnavisligiga xos an’anaga muvofiq yozilganligiga hamda muallifning sinfiy chegaralanganligiga qaramay, O‘rta Osiyo va O‘rta Sharq mamlakatlari xalqlarining mazkur davr tarixini marksistik to‘g‘ri va mufassal yoritish uchun faktik ma’lumotlarga boy qimmatli manba ekanligidir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganimizdan keyin mamlakatimizda ma’naviy tiklanish va yangilanish islohotlarini buyuk tariximiz, buyuk ajdodlarimiz jumladan, buyuk davlat arbobi Amir Temurning boy merosini, tarixini tiklash asosiga qurdi. Amir Temur xotirasini abadiylashtirish maqsadida prezident farmonlari, qarorlari va sohaga oid turli xil dasturlar ishlab chiqildi. Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sining dastlabki qismlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, “Sharq yulduzi” jurnalida 1992-yili nashr etildi. “Zafarnoma” ning “Muqaddima” qismidan boshlab Chig‘atoy ulusi hukmdorlari tarixidan lavhalar o‘zbek tiliga tarjima qilinib “Amir Temur ajdodlari” nomi bilan 1992-yili chop etildi. “Zafarnoma”ning asosiy qismidan 1360-1370 yillarda Movarounnahrda kechgan tarixiy voqealar tafsiloti ham o‘zbek tiliga o‘girilib, tegishli ilmiy izohlar bilan alohida kitob shaklida nashr bo‘ldi . Asarning bir qismi 1994-yilda O.Bo‘riyev tarjimasi asosida o‘zbek tilida chop etilgan . Bundan tashqari O. Bo‘riyevning “Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo: tarixiy-geografik lavhalar” nomli asari 1997 – yilda chop etildi. Ushbu kitobda Temuriylar davri yozma manbalari ma’lumotlari asosida Markaziy Osiyoning XIV – XV asrlardagi ma’muriy-hududiy bo‘linishi, tabiati va xo‘jaligi haqida so‘z yuritiladi. Mo‘g‘ullar to‘g‘risida ma’lumot “Zafarnoma”ning “Muqaddima” qismida Chingizxon va Chig‘atoy ulusi tarixida uchraydi. “Mo‘g‘ul” so‘zi “Zafarnoma”da katta etnik tushuncha xalq ya’ni bir qancha urug‘-qabilalarni anglatgan. XIV asrda yozilgan “Jome at-tavorix” Rashidaddinning asarida ham, mo‘g‘ul deb bir qancha urug‘-qabilalar nazarda tutilganligi o‘rin olgan.

Qavchin etnik guruxi haqida Yazdiy “Zafarnoma”sining “Muqaddima” qismida ma’lumotlar bor. Chingizxonning xotini Barta ham qavchin urug‘idan bo‘lgan. Chingizxonning to‘rtta o‘g‘lini ham shu xotini tug‘gan. Jo‘ji, Chig‘atoy, O‘qtoy, Tulu. Bu qavmning Chingizxon davrida ham mavqei baland bo‘lgan.

Amir Temur davrida qavchinlar barloslardan keyin turgan eng faol qavmlardan hisoblanadi. Qavchinlar Amir Temurning Movarounnahrni mo‘g‘ullardan ozod qilish uchun olib borgan kurashlarida sadoqat bilan xizmat qilishgan. Keyinchalik qavchinlar Amir Temurning Boyazid bilan bo‘lgan kurashlarida ham qatnashganlar. Amir Temur ularni lashkari amir mansabi bilan taqdirlangan. Itilmish qavchin To‘xtamishxonning Buxoroga chopqini paytida shahar mudofaasini yaxshi tashkil qilgani, Amir Temurning g‘arbiy mamlakatlarga yurishlarida jasorat ko‘rsatgani uchun Amir Temur besh yillik yurishi davrida Avnik qal’asini boshqarishni unga topshirdi. Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn” asarida qavchinlar haqida quyidagi ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Qavchinlar Amir Temur vafotidan keyin ham uning avlodlari Mirzo Shohruh, Mirzo Pirmuhammad, Mirzo Ulug‘bek xizmatida bo‘lganlar. “Zafarnoma” asari “Muqaddima”sida insoniyat tarixi Odam atodan

boshlab hikoya qilinadi va Nuh payg‘ambardan keyin turkiy qavmlar hukmdorlari shajarasi quyidagicha berilgan:

Nuh – Yofas – turk [Yofas -o‘g‘lon] – Almajnaxon – Debodqo‘yxon – Ko‘kxon – Alinjaxon. Bu xon egizak o‘g‘il ko‘rib ularning biriga totor, ikkinchisiga mo‘g‘ul deb ism qo‘yadi. Ularning shajarasi ikkita alohida tarmoqni tashkil etgan . Turk qavmi xitoy turklari, qarluq turklari, qang‘li turklari kabi urug‘ qabilalardan iborat.

Qoraxoniylar,Qoraxitoylar va Xorazmshohlar sulolalari hukmronligi davrida turkiy elatlar asosiy o‘rinni egallaganlar. Ularning mavqe baland bo‘lgan. Xorazmshohlar davlatida Muhammad Xorazmshoh davrida lashkarining asosiy qismini turkiy elatlardan tayinlaganligi manbalarda qayd qilingan.

“Zafarnoma”da 1360 – 1370 yillar voqealaridan boshlab o‘zbek atamasi keltiriladi. Amir Temurning harbiy yurishlarida o‘zbeklar qatnashgan. Manbalarda Amir Temurning Dashti Qipchoqdan o‘zbek qabilalarini Movarounnahrga ko‘chirib kelganligi to‘g‘risida ma’lumotlar ko‘zga tashlanadi.

Metodlar va o‘rganilish darajasi. Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari davlatchiligimiz tarixida muhim o‘rin egallagan Amir Temur tarixi haqida batafsil ma’lumot beradi.

Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari tuzilishi bo‘yicha 2 qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi Temurning shajarasiga bag‘ishlangan va unda yana turkiy qabilalarning tarixi hamda Chingizxonning to‘rt ulusini boshqargan hukmdorlarlar tarixini aks ettirgan kirish qismi, fanda “Muqaddima” nomi bilan mashhurdir. Ikkinchi qismi esa, Sohibqiron Amir Temur tarixini o‘zida aks ettirgan asosiy qism “Zafarnoma” dan iborat. Har bir qismi alohida yozilgan bo‘lib, ma’no jihatdan bir-birini to‘ldirgan. Buyuk tarixchi va olim Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”ni yoritishga katta ehtiyotkorlik bilan yondoshadi.

Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida bir qancha etnik guruh nomlari keladi. Bu etnik guruhlarning nomlari bir qismi alohida yozilgan bo‘lsa, boshqa qismi shaxs ismlari tarkibida kelgan. Etnik guruhlarning nomlari quyidagicha keltirilgan: apardi, arlot, arab, avg‘on, barlos, bahrin, bo‘ruldoy, bovurji, bilkut, gurji, do‘g‘lot, jaloyir, jata, mangqut, makritmo‘g‘ul, noymon, nukuz, nikudariy, sulduz, sanjariy, turkman, uyg‘ur, fors, xitoy, chig‘atoy, yasavuriy, o‘zbek, o‘yrot, qavchin, qipchoq, qo‘ng‘irot kabilar.

Etnoslarning Amir Temur davlati ma’muriy-hududiy holatidagi mavqei alohida ko‘rsatilmagan. Ko‘pincha buni biror bir etnik guruh vakilining siyosiy mavqeyini o‘rganish orqali bilib olish mumkin bo‘ladi.

Masalan, jaloyir qabilasini ko‘radigan bo‘lsak, Boyazid jaloyir, sulduz urug‘ida-Bayon sulduz, yasavuriylarda-Hizr yasavuriylar bo‘lib, ulardan ba’zilari amir –

lashkarboshi unvoniga ega bo‘lib, urug‘-qabila yoki elatni boshqargan. Demak, bunda ko‘rishimiz mumkinki, o‘sha lashkarboshi qaysi urug‘-qabiladan bo‘lsa, o‘sha urug‘-qabilaning nufuzi baland bo‘lgan. Bunday mansablarga tegishli shaxslar shaxsan, Amir Temurning o‘zi tomonidan ham uning harbiy harakatlarida jonbozlik ko‘rsatgan ayrim urug‘ vakillarini lashkarboshi lavozimiga tayinlagan.

Tarixchi Omonullo Bo‘riyevning “Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi” nomli monografiyasida Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida qayd etilgan Markaziy Osiyo aholisining etnik tarkibiga oid ma’lumotlari ham keltirib o‘tilgan.

Bu yerda birinchi bo‘lib avg‘onlar haqida ma’lumot berilgan bo‘lib, Amir Temurning Seiston tarafga yurishida avg‘on qabilalarini bo‘ysundiradi. Bu qabilalar, ya’ni avg‘onlar ko‘proq savdo yo‘llarida qaroqchilik bilan shug‘ullanganlar va Amir Temurning Hindistonga yurishi sababi ana shu savdo yo‘llarini qaroqchilardan tozalash bo‘lgan . Amir Temur savdo yo‘llarida bir nechta qo‘rg‘on qurdirgan va o‘z askarlarini qo‘riqlash uchun qoldirgan.

Yazdiy “Zafarnoma” sida XIV asr o‘rtalarida Mo‘g‘ulistonda yashagan kerait, arkanut, qang‘li kabi qabilalar haqida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, bu urug‘larga mansub lashkarboshilar lashkarning old qismida xizmat qilganliklari haqida ma’lumotlar bor.

“Zafarnoma” da Afg‘onistonning Xuroson viloyatida yashagan turkiy urug‘-arlotlar haqida ham ma’lumot keltirilgan bo‘lib, Bu urug‘ haqida “Tarixi Rashidiy” asarida ham quyidagicha ma’lumot berilgan, arlotlar Chig‘atoy ulusining sharqiy va g‘arbiy qismlarida yashagan va XIV-XV asrlarda mavqei baland urug‘lardan bo‘lgan.

Amir Temur arlot urug‘i bilan qarindosh bo‘lgan. Ya’ni arlot urug‘idan bo‘lgan Amir Muayyad Amir Temurning kuyovi hisoblanadi.

Arlot urug‘i vakillari Amir Temurning harbiy yurishlarida qatnashganliklari qayd etib o‘tilgan. Bu urug‘ vakillari Amir Temurning harbiy yurishlarida katta jasorat qozonganlar va yaxshi xizmat qilganlar buning evaziga esa, Amir Temur ularni yuqori darajaga tayinlagan. Masalan: Amir Pirimshoh arlat, amir Muayyad arlot, Pirhoji arlotlar. Bu qavmning mavqei baland bo‘lgan.

“Zafarnoma” asarida barloslar haqida dastlabki ma’lumot asarning “Muqaddima” qismida tilga olinadi.

Barlos urug‘i haqida dastlabki ma’lumot “Muqaddima”ning “mo‘g‘ul” tarmog‘i hukmdorlari tarixi tavsifida keladi. Unda bitta shaxs, ya’ni shajaradagi Alonquvo ikkita urug‘- “qiyot” va “barlos” urug‘lariga tegishli bo‘lib qolgan.

“Muqaddima” da turkiy xonlardan bo‘lgan podshoh Qobulxon hukmronligi vaqtida Qochulining o‘g‘li Erdamchi lashkarboshi etib tayinlangandan so‘ng unga

“barlos” degan laqab berilganligi keltirilgan. Erdamchi Amir Temurning yettinchi bo‘g‘indagi otasi bo‘lgan.

“Barlos” etnik atama haqidagi ikkinchi ma’lumot, Chingizxonning bobosi Barton bahodir hukmdorligi davriga tegishli bo‘lib, uning yuksak jasoratini hisobga olib “xon” laqabini “bahodir” laqabiga almshtirdilar . Chingizxon hukmdorlik uchun kurash olib borgan paytda esa, barloslar uni qo‘llab-quvvatlagan.

“Zafarnoma” ning asosiy qismida esa, ya’ni Amir Temur saltanati tarixi bayonida ham barloslar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Amir Temur o‘z hukmronligida barloslarga alohida e’tibor bergan, o‘g‘illari va nevaralariga biror yurtni suyurg‘ol qilganida, u yerga, eng ishonchli kishilari sifatida barloslardan qo‘shib yuborgan. Amir Temur lashkarida anchagina tumanlar sarkardalari barloslardan qo‘yilgan va ularga “amir” unvoni berilgan . Amir Temur yurishlarida qatnashgan barloslardan bo‘lgan Joku barlos unga yaxshi xizmatda bo‘lganligi uchun lashkar amiri unvoni bilan taqdirlangan. Amir Temur barloslarni ma’muriy mansablarga ham tayinlagan. Misol uchun Buxoroni Tag‘ay – bug‘o barlosga, Hisori-Shodmonni Dudmalik barlosga, Kirmon viloyatini esa, G‘iyosiddin barlosning o‘g‘liga boshqarishga bergan.

Barloslar haqida xulosa qiladigan bo‘lsak, bu qavm vakillari Amir Temurga sadoqat bilan xizmat qilganlar va ularning mavqei baland bo‘lgan. Amir Temurning o‘zi ham barloslarni barcha harbiy yurishlarida o‘zi bilan olib yurgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, qadim zamonlardan buyon Markaziy Osiyo hududida ikki tilli etnik urug‘-jamoalar, qabila va elatlar yashab kelgan. Ular ayrim hollarda alohida, ko‘pincha esa yonma-yon va aralash holda istiqomat qilgan. Ular o‘rtasidagi iqtisodiy, madaniy hamda etnik aloqalar uzoq tarixiy jarayon davomida shakllanib, muayyan hududlarda o‘zaro qorishish natijasida yangi etnoslarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

Zafarnoma asarida Amir Temur saltanatidagi etnik-hududiy vaziyat voqealar tasviri orqali yoritilib, o‘sha davr aholisi haqida muayyan tasavvur hosil qilish mumkin. Unda turli urug‘ va qabilalarning nomlari, ularning hududlarda joylashgani, jamiyatdagi mavqei, davlat boshqaruvidagi ishtiroki hamda nasl-nasabiga oid ma’lumotlar uchraydi. Shuningdek, ayrim etnik guruh nomlari alohida shaxslar nomi bilan birga keltirilib, bu vakillarning jamiyatda yuqori obro‘-e’tiborga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Temuriylar davriga oid etnik ma’lumotlar o‘sha davrdagi Markaziy Osiyoning etnik tarkibini aks ettirib, tarixiy etnoslar haqida muhim tasavvur beradi. Amir Temur turli urug‘-qabilalarni ko‘chirib keltirib joylashtirgan, sadoqat va jasorat ko‘rsatganlarga alohida ehtirom bildirib, ularga qulay sharoit yaratgan. Garchi asar yaratilganidan buyon turli yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da,

mazkur mavzu doirasidagi ma’lumotlar nisbatan kam uchraydi. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlar mavzuning tarixshunosligini aniqlashtirish va boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдураззоқ Самарқандий. “Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн”.Таржимон ва нашрга тайёрловчи А.Ўринбоев. – Тошкент.: “ Фан”, 1969. 337-б
2. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома [фотофаксимил нашр]. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва кўрсаткичлар муаллифи А. Ўринбоев. – Тошкент: Фан, 1972. XII-Бет.
3. Doniyorov.Alisher Markaziy Osiyo tarixshunosligi tarixi. -Toshkent NIF MISH. 2020. 174-бет.
4. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома[фотофаксимил нашр]. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи А. Ўринбоев.-Тошкент:. Фан, 1972. XIII-Б.
5. Шарафуддин Али Яздий “Зафарнома” 1-китоб Муқаддима. // Форс тилидан таржима, сўз боши ва илмий изоҳлар муаллифи Омонулло Бўриев. Шахс исмлари, жой номлари, этник номлар ва атамалар кўрсаткичини тузувчи Азизжон Шарипов. – Т.:“ Фан”, 2020. 4-Бет.
6. ErgashevBaxtiyor Manbashunoslik va tarixshunoslik. Samarqand – 2021. 105 – бет.